

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

“TASDIQLAYMAN”

(OTM rektori)

202__ yil “__” _____

“KELISHILDI”

Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim
vazirligi

202__ yil “__” _____

Ro‘yxatga olindi: _____

202__ yil “__” _____

ADABIYOTSHUNOSLIK NAZARIYASI

FAN DASTURI

Bilim sohasi: 100.000 – Gumanitar soha
Ta‘lim sohasi: 120.000 – Gumanitar fanlar
Ta‘lim yo‘nalishi: 5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish
(O‘zbek tili)

TOSHKENT – 2020

Fan/modul kodi MBIAF (bakalavriat)	O'q uv yili 2020 -2021	Semestr 1-,7-	ECTS - Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Adabiyotshunoslik nazariyasi	150	150	300
	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – “Adabiyotshunoslik nazariyasi (Adabiyotshunoslikka kirish)” fani adabiyotning jamiyat ijtimoiy hayotidagi o'rni, adabiyotning ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati, adabiyotning tabiiy va ijtimoiy fanlar va san'atning boshqa turlaridan farqi, adabiy turlar va janrlar, ijodkorlarning o'ziga xos uslubi kabilar to'g'risida ma'lumot beradi¹.</p> <p>“Adabiyotshunoslik nazariyasi (Adabiyotshunoslikka kirish)” fanining ahamiyati ijtimoiy hayot va adabiyotni tushunish, badiiy asarlarning badiiy-estetik darajasini aniqlash, adabiy qahramon va real hayot kishisi o'rtasidagi farqlarni ajratish kabilar bilan belgilanadi.</p> <p>Talabalar bu fanni o'rganish orqali adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari, adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid, badiiy asarning tarkibiy qismlari, adabiy tur va janrlar, adabiyot va ijtimoiy hayot, ijodiy uslublar,</p>			

¹ **IZOH:** O'quv rejasidagi “Adabiyotshunoslik nazariyasi” fani ikki qism-“Adabiyotshunoslikka kirish” hamda “Adabiyot nazariyasi”dan tarkib topgan bo'lib, “Adabiyotshunoslikka kirish“ 1-kursda, “Adabiyot nazariyasi” 4-kursda o'qitiladi.

ijodkor uslubi, badiiy obraz, adabiy qahramon, badiiy san'atlar kabilar to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladilar.

Mazkur fan falsafa, tarix, etika va estetika, san'atshunoslik yo'nalishidagi fanlar bilan uzviy bog'langan.

Mazkur fanni o'qitishning asosiy maqsadi – badiiy asarni tahlil qilish uchun yo'llanma berish, badiiy matnni turli metodlar asosida har tomonlama ilmiy-estetik tahlil qilish, jahon adabiyotshunosligidagi metodlarni adabiy tur hamda janrlar bo'yicha yozilgan ilmiy asarlar misolida asoslab o'rganish, umuman, adabiyotshunosning ilmiy-estetik tafakkurini shakllantirish ushbu fanning asosiy maqsadi sanaladi.

- **Fanning vazifasi** – “Adabiyotshunoslik nazariyasi (Adabiyotshunoslikka kirish)” fanining adabiyotshunoslik tarixi, zamonaviy adabiyotshunoslik orasidagi bog'lanishni tushuntirish;
 - adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlarini o'rgatish;
 - badiiy asarni ilmiy-estetik tahlil qilish, matnni tarkibiy qismlarga ajratish va ularning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;
 - badiiy asarlarni turli metodlar asosida tahlil qilishni tushuntirish;
 - adabiyotshunoslik tarkibiy qismlari orasidagi bog'liqlikni ko'rsatish;
 - o'zbek adabiyotshunoslarining maqola, taqrizlarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rgatish;
- talabaga san'at asarlarini his qilishini o'rgatish.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

“Adabiyotshunoslikka kirish” qismi bo'yicha ma'ruza mashg'uloti uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1-mavzu. Adabiyotshunoslik – badiiy adabiyot to'g'risidagi fan

Adabiyotshunoslik fanining maqsad va vazifalari. Badiiy asar – adabiyotshunoslik ob’ekti. Adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari: adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid, matnshunoslik, manbashunoslik. Adabiyotshunoslik va adabiy jarayon. Hayot va san’at. San’at turlari. Adabiyot – so‘z san’ati. Inson – adabiyotning asosiy ob’ekti.

2-mavzu. Adabiyotshunoslik tarixi

Qadimgi davr adabiyotshunosligi. Arastu – adabiyotshunos. Sharq adabiyotshunosligi: ilmi aruz, ilmi qofiya, ilmi bade’. Tazkiralar – Sharq adabiyotshunosligi muhim manbasi. G’arb adabiyotshunosligi. Bualo, Belinskiy tadqiqotlari. Gegel “Estetika”si. Adabiyotshunoslik rivojida matbuotning o‘rni. Adabiyotshunoslikning estetik did va ijtimoiy fikr o‘shiga ta’siri.

3-mavzu. Badiiy asar. Badiiy asar mavzusi

Badiiy asar va ilmiy asar. Ijtimoiy hayot va badiiy asar. Xalq og‘zaki ijodi – badiiy adabiyot ibtidosi. Folklor namunalari va yozma adabiyot. Matn – asar asosi. Badiiy asar tarkibiy qismlari. Epik turga mansub asarlarning tuzilishi. Lirik (she’riy) turga oid asarlar tarkibining o‘ziga xosliklari. Drama turidagi asarlarning tarkibi. Mavzu – badiiy asarda e’tibor qaratilgan muayyan voqelik. Hayot voqeligi – badiiy asarlar uchun asosiy mavzu. Adabiyotdagi abadiy va davriy mavzular. Mavzuning yoritilishi. Badiiy asar uchun tarixiy voqelik va zamonaviy hayot muammolarining mavzu qilib olinishi.

4-mavzu. Badiiy asar kompozitsiyasi. Badiiy asar syujeti

Badiiy asarda shakl va mazmun. Kompozitsiya – badiiy asar tarkibiy qismlarining o‘zaro bog‘liq joylashishi. Badiiy asar kompozitsiyasi va

arxitektonikasi. Adabiy qahramon portreti. Peyzaj. She'riy asarlar kompozitsiyasi. Epik asarlar kompozitsiyasi. Sharq va G'arb she'riyatining o'ziga xos xususiyatlari. An'anaviy va modern asarlar kompozitsiyasi. Mumtoz drama, tragediya, komediyalar kompozitsiyasi.

Syujet – qahramonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni ifodalovchi, asar mazmunini tashkil etuvchi voqealarning muayyan tartibda joylashtirilishi. Fabula – biri-biri bilan uzviy bog'liq hayotiy voqealar jamlamasi. Badiiy asarda syujetning o'rni va ahamiyati. Hayot voqeligi – syujet asosi. Syujet tarkibiy qismlari: voqealar tuguni, voqealar rivoji, voqealar avj nuqtasi, voqealar echimi. Syujetda badiiy to'qima. Sayyor syujetlar. Xronikal syujetli asarlar. Ko'p tarmoqli syujetli asarlar. Epik, lirik asarlarda syujet. Drama turiga mansub asarlarda syujet.

5-mavzu. Badiiylik – adabiyotning asosiy xususiyati. Badiiy asar tili

Badiiylik – san'at asosi. Tabiatdagi go'zallik va san'atdagi go'zallik. Badiiy adabiyotda hayot voqeligi va inson obrazi so'z orqali nafis tasvirlanishi. Badiiylik – asar mazmuni va shaklining mutanosibligi, uslubining ravonligi,

komponentlarining o'zaro uyg'un kelishi, tilining jozibadorligi kabi omillar jamlamasi. So'z – adabiyotning asosiy quroli. Badiiy asar matnida so'z. Badiiylik – obrazlilik. Obraz, obrazlilik, ramz, majoz. Badiiylik – ijodkor mahorati mezon.

Badiiylikning epik, lirik asarlarda namoyon bo'lishi. Drama turidagi asarlarda badiiylikning aks etishi. Badiiy asar tili va ilmiy asar tili. Obrazlilik – badiiy asar tili asosi. Badiiy san'atlar: ma'naviy, lafziy san'atlar. Muallif nutqi. Qahramon nutqi: dialog va monolog. Personajlar portreti tasviri.

6-mavzu. Obraz – insonning adabiyotdagi umumlashma tasviri

Obraz – san'atga xos hodisa. Adabiyotda obrazning aks etishi. Inson – adabiyotdagi asosiy obraz. Obraz – adabiy qahramon. Asardagi asosiy va boshqa qahramonlar. Personaj, xarakter, tip. Realistik va romantik, fantastik va majoziy obrazlar. Portret – inson obrazini gavdalantirishning muhim unsuri.

7-mavzu. Adabiy tur va janrlar

Adabiy turlar va janrlarning soʻz sanʼatidagi oʻrni va ahamiyati. Badiiy asarlar hayot voqeligi va inson obrazini gavdalantirishiga koʻra epos, lirika, drama turiga ajratilishi. Har bir tur janrlarga boʻlinishi. Epos, lirika, drama turidagi asarlarning sheʼriy yoki nasr yoʻlida yozilishi. Folklor va yozma adabiyotdagi janrlar.

8-mavzu. Sheʼr tuzilishi va sheʼr tizimlari. Aruz sheʼr tizimi

Sheʼr va nasr. Sheʼriy nutqning oʻziga xos xususiyatlari. Sheʼrning tarkibiy qismlari: misra, band, ritm, boʻgʻin, turoq, vazn, qofiya. Sheʼr tizimlari: aruz, barmoq. Erkin, sərbast, oq sheʼr. Sharq adabiyotidagi sheʼriy janrlar. Gʻarb adabiyotidagi sheʼriy janrlar.

Aruz – Sharq mumtoz sheʼriyatidagi asosiy tizim. Aruz – qisqa, choʻziq va oʻta choʻziq hijolarning muayyan tartibda guruhlanib takrorlanib kelishi asoslangan metrik sheʼr tizimi. Aruzdagi ritmik birliklar: hijo, rukn, bahr.

9-mavzu. Ijodiy metod va ijodkor uslubi. Adabiy jarayon

Ijodiy metod – hayot hodisalarini tanlash va ularga muayyan dunyoqarash asosida yondashish, talqin qilish yoʻli. Realizm va romantizm ijodiy uslubi. Klassitsizm yoʻnalishi. Naturalizm, sentimentalizm, syurrealizm yoʻnalishi. Ijodkor uslubi. Ijtimoiy hayot adabiyot va sanʼatning bogʻliqligi. Qadimda adabiy jarayon. Adabiy anʼana va novatorlik. Adabiy jarayondagi etakchi jihatlarining namoyon boʻlishi. Adabiy jarayonning davomiyligi.

10-mavzu: Bolalar adabiyoti spetsifikasi

Bolalar adabiyoti tarixi. Bolalar adabiyotining oʻziga xos xususiyatlari: yosh, dunyoqarash masalasining ahamiyati. Tarbiya, didaktika, obrazli tasvirlarning bolalar adabiyotida tutgan oʻrni. Bolalar adabiyotida qahramon masalasi. Bolalarga

bag'ishlangan asarlarsa syujet va kompozitsiya masalasi. Dunyo bolalar adabiyoti vakillarining ushu adabiyot xazinasiga qo'shgan hissasi

“Adabiyot nazariyasi” qismi bo'yicha ma'ruza mashg'uloti uchun tavsiya etiladigan mavzular:

11-mavzu. Kirish. Adabiyot nazariyasi fan sifatida.

San'at – estetik hodisa. San'atning tabiati va turlari. San'atda inson ruhiyati masalasi. Badiiy adabiyot san'atning bir turi sifatida. Adabiyot nazariyasining adabiyotshunoslik fani tarkibida tutgan o'рни; Adabiyot nazariyasining adabiyot tarixi, adabiy tanqid, adabiy manbashunoslik, adabiy jarayon, jahon adabiyoti, adabiyotshunoslik metodlari bilan aloqasi.

12-mavzu. Adabiy-nazariy tafakkur taraqqiyoti tarixidan

Adabiyotshunoslik tarixiga umumiy bir nazar; adabiy-nazariy qarashlarning mumtoz sharq adabiyotining takribiy qismi sifatida; mumtoza poetika asoslari; g'arb adabiy-nazariy tafakkurining yetakchi tamoyillari; adabiyot nazariyasi tarixida ilmiy atamalar masalasi.

13-mavzu. Adabiyotning spetsifikasi

Adabiyotning o'ziga xosligining asosiy belgilari; badiiy adabiyotning vazifasi xususida; badiiy adabiyotning insonshunoslik ekanligi; badiiy adabiyot va ijtimoiy hayotning o'zaro munosabati; adabiyotda insonning ichki olami tasviri; adabiyot va san'atda ruhiyat masalasi; inson his-tuyg'ulari va kechinmalarining badiiy tasviri.

14-mavzu. Badiiy asar tarkibi

Badiiy asar tarkibiga xos xususiyatlar; adabiyotda shakl va mazmun uyg'unligi badiiylikning eng muhim mezon sifatida; poetik shaklning o'zgarib borishi; shaklbozlik muammosi; badiiy asarning shakli va mazmuniga oid poetik unsurlar masalasi; badiiy syujet tizim sifatida; syujetning badiiy asar takribidagi poetik funksiyasi; badiiy asar kompozitsiyasi va uning elementlari.

15-mavzu. Badiiy asarda mavzu va g'oya tasnifi. Temotologiya.

Badiiy adabiyotdagi umrboqiy va o'tkinchi, tarixiy va zamonaviy mavzular masalasi; mavzuning mohiyati va dolzarbligi; badiiy asar mavzusi va iste'dod darajasi; mavzular tasnifiga doir; badiiy g'oya va ijtimoiy g'oyaning o'ziga xos qirralari; mavzushunoslik; mavzu, g'oya, obraz va estetik ideal munosabati.

16-mavzu. Badiiy tafakkur va badiiy obraz

Badiiy asarda insonning murakkab dunyosi talqin; obrazlarning turli nuqtai nazardan tasniflari; obrazda umumiylik va xususiylik; obraz va muallif munosabati; obraz va detal; obraz va so'z; obraz yaratish usullari; obraz, simvol, ramz xususida; badiiy obraz genezisi - maydonga kelish omillari xususida. Obraz va xronotop; syujet va obraz munosabati;

17-mavzu. Poetik nutq xususida

Poetik nutq va badiiy asar tili masalasi. Poetik nutqqa xos alomatlar. Badiiy nutq tarkibi. Badiiy asar pafosi va nutq munosabati; Nasr va nazm. Muallif va qahramonlar nutqidagi individuallik; dialogik va monologik nutq. Poetik nutqda emotsionallik; nasriy asar ritmi. Badiiy nutq mezoni.

18-mavzu. Adabiy tur va janrlar poetikasi

Adabiy tur tushunchasi va uning tasnifi. Adabiy tur va janrlarning paydo bo'lish masalasi. Adabiy janrga xos belgilar. Epik tafakkur spetsifikasi. Lirik va insonning ruhiyati, his-tuyg'ulari. Siyosiy, intim, tabiat lirikasi xususida. Lirizm va dramatism. Satira va yumor mustaqil ijod turi sifatida. Dramatik asarlar va teatr san'ati. Adabiy tur va janrlardagi o'ziga xoslik hamda uyg'unlik. Tragikkomediya.

19-mavzu. Ijodiy metod va uslub

Ijodiy metod va adabiy oqimlar. Romantizm va uning turlari. Romantizmدا orzu-umidlar yoki tasavvurlar aks etishi. Realizm va uning turlari. Realizm-haqqoniy tasvir. Modernizmning ichki oqimlari: ekzistensializm, simbolizm, futurizm,

syurrealizm, postmodernizm va boshqalar. Jahon san'at tarixida oqim va metodlar ko'pligi. Uslub va ijodkor. Kinoyaviy uslubga xos belgilar. Badiiy uslub va badiiy til. Uslublar xilma-xilligi. Uslubdagi individuallik.

20-mavzu. Ijod psixologiyasi va ijodkor laboratoriyasi

Ijod psixologiyasi va ijodkor laboratoriyasiga manbalar; muallif "men"iga xos xususiyatlar; iste'dod ijodkorlikning bosh alomati; badiiy asar iste'dodli ijodkor poetik olamining mahsusi sifatida; ijodkorga xos ruhiy holatlar; badiiy asarning jamiyatga ta'siri; tarixiy-ijtimoiy hayotning badiiy asrada aks etishi;

21-mavzu. Badiiy asarni qabul qilish va talqin etish yo'llari

Badiiy did masalasi; retsepsion estetikaning mohiyati xususida; badiiy asarni qabul qilishda milliylik va umuminsoniylik tamoyillari; Badiiy tirik organizm sifatida; badiiy asarni tushunish va tushuntirish yo'llari xususida; badiiy asarni kompleks tahlil etish usuli.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulot talabalarni adabiyotshunoslik nazariyasiga doir ma'lumotlar bilan mustaqil tanishishga, ularni adabiy asarni nazariy jihatdan tahlil va talqin qilishga yo'naltiradi. Talabalar to'plagan bilimlarini dars vaqtda munozara yoki ma'ruza ko'rinishida himoya qiladi. Amaliy mashg'ulotlarda talabalar adabiyotshunoslik nazariyasi fanining o'ziga xos nazariy xususiyatlarini, badiiy asar shakli va mazmuniga doir ilmiy masalalarni o'rganadilar.

"Adabiyotshunoslikka kirish" qismi bo'yicha amaliy mashg'ulot uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Adabiyotshunoslikning tarkibiy qisamlari;
2. Arastu "Poetika" asari;
3. Fitrat - adabiyotshunos;
4. Og'zaki va yozma adabiyot namunalari tahlili;
5. Badiiy obraz turlari;
6. Badiiy asar tilining o'ziga xos xususiyatlari;

7. Ijodiy metod va adabiy oqimlar;
8. Ijodkor uslubi;
9. Badiiy asarni tahlil qilish usullari;
10. Izzat Sulton - nazariyotchi olim;
11. Matyoqub Qo‘shjonov – adabiyotshunos;
12. Ozod Sharafiddinov – adabiyotshunos.

**“Adabiyot nazariyasi” qismi bo‘yicha amaliy mashg‘ulot
uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. Badiiy obraz tabiati muammolari;
2. Syujet, motiv va mavzu munosabati;
3. She‘riy san‘atlar: ma‘naviy va lafziy san‘atlar
4. Roman janri imkoniyatlari;
5. Nasriy asarda ritm. Saj haqida;
6. Badiiy asar tili va poetik nutq masalasi;
7. Adabiy–tarixiy jarayonda an‘ana va yangilanish;
8. Badiiy adabiyotda milliylik va umuminsoniylik;
9. Badiiy asar pafosi muhokamasi.

Izoh: Tavsiya etilgan mavzulardan amaliy mashg‘ulotlar uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda foydalanish mumkin.

**3.2. Seminar mashg‘ulotlarini tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatma va
tavsiyalar**

Seminar mashg‘ulotlari talabalarni adabiyotshunoslik nazariyasiga oid ma‘lumotlar bilan mustaqil tanishishga, ularni nazariy nuqtai nazaridan tahlil va talqin etishga yo‘naltiradi. Talabalar egallagan bilimlarini dars chog‘ida munozara yoki ma‘ruza shaklida himoya qiladi. Seminar mashg‘ulotlarida talabalar adabiyotshunoslik nazariyasining ilmiy muammolari to‘g‘risida amaliy ko‘nikma va malaka hosil qiladilar.

**“Adabiyotshunoslikka kirish” qismi bo‘yicha seminar mashg‘ulotlari uchun
tavsiya etiladigan mavzular:**

1. Sharq adabiyotshunosligi: ilmi aruz, ilmi qofiya, ilmi bade‘;
2. Adabiyotning tur va janrlarga bo‘linishi;
3. Navoiy she‘rlaridagi badiiy san‘atlar;

4. Bobur she'rlaridagi she'riy san'atlar;
5. Fitratning "Adabiyot qoidalari" asari tahlili;
6. Cho'lpon she'rlari badiiyati;
7. Oybek - adabiyotshunos;
8. Maqsud Shayxzoda - adabiyotshunos;
9. G'afur G'ulom she'rlarida zamon nafasi;
10. "Jahon adiblari adabiyot haqida" kitobidagi maqolalar tahlili;
11. Matyoqub Qo'shjonovning adabiy-nazariy qarashlari;
12. Ozod Sharafiddinovning adabiy-tanqidiy qarashlari.

"Adabiyot nazariyasi" qismi bo'yicha seminar mashg'ulotlari uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Sharq adabiy-nazariy tafakkuri tarixidan;
2. G'arb adabiy-nazariy tafakkuri tarixidan;
3. Hajviy tafakkur tabiati, satira va yumor;
4. Badiiy asar g'oyasi, mavzusi va estetik ideal;
5. Badiiy asar pafosi va estetik ideal;
6. Epik tur; qissa genezisi;
7. Lirik tur; she'rshunoslik;
8. Dramatik tur, tragediya va tragikkomediya;
9. Adabiyotda estetik kategoriyalar muhokamasi/

Izoh: Ushbu mavzulardan seminar mashg'ulotlari uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda foydalanish tavsiya etiladi.

3.3. Kurs ishini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar

Kurs ishining maqsadi talabalarning mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirish, olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash va amaliy ko'nikmalar hosil qilishdir.

O'tilgan mashg'ulotlar asosida quyidagi kurs ishi mavzulari tavsiya etiladi:

1. Adabiyotning adabiy-estetik tabiati.
2. Adabiyotning ijtimoiy mohiyati
3. Badiiy adabiyot - so'z san'ati sifatida.
4. Adabiyotshunoslik – so'z san'ati haqidagi fan.
5. Adabiyot nazariyasi va boshqa fanlar munosabati.
6. Adabiy jarayon bilan adabiyot nazariyasi munosabati;

7. Adabiyot va mafkura munosabati;
8. Badiiy adabiyotda zamonaviylik;
9. Badiiy adabiyotda tarixiylik tamoyili;
10. Badiiy asarning umrboqiyligi masalasi;
11. Adabiyotda estetik kategoriyalar;
12. Badiiy adabiyotning vazifasi.
13. Hayotiy voqeya va badiiy to'qima.
14. Badiiy obraz tasnifi.
15. Obraz va prototip munosabati;
16. Badiiy obraz turlari: xarakter va personaj;
17. Badiiy adabiyot va mifologik tafakkur;
18. Didaktik adabiyot tabiati;
19. Fantastik adabiyot tabiati.
20. Badiiy asar pafosi.
21. Badiiy asarda shakl va mazmun uyg'unligi;
22. Badiiy asar tili;
23. Badiiy ijod va ruhiyat masalasi;
24. Badiiy asarda mavzu va g'oya;
25. Syujet va kompozitsiya;
26. Struktural poetika;
27. Konflikt va uning turlari;
28. Sayyor syujetlar masalasi;
29. Syujetning tarkibiy qismlari;
30. Badiiy asarda psixologizm;
31. Badiiy asarda polifonizm;
32. Badiiy asar xronotopi;
33. Badiiylik mezonlari;
34. Qahramon portreti;
35. Badiiy asarda peyzaj;
36. Badiiy tasvir vositalari;
37. Ma'naviy san'atlar;
38. Lafziy san'atlar;

39. Poetik nutq masalasi;
40. Badiiy asar tili;
41. Soʻz va obraz munosabati;
42. Ijodkor uslubi;
43. Monolog va dialog;
44. Sheʼr vaznlari tasnifi;
45. Aruz sheʼr tizimi;
46. Barmoq sheʼr tizimi;
47. Qofiya ilmi;
48. Sharq sheʼriyatida asosiy janrlar;
49. Gʻazal poetikasi;
50. Ruboiy va tuyuq;
51. Qitʼa va fard;
52. Qasidanavislik tarixi;
53. Sarbast va erkin sheʼr;
54. Sonetga xos nazariy xususiyatlar;
55. Doston va poema;
56. Adabiy turlar masalasi;
57. Epik tur janrlari haqida;
58. Roman janri va uning tasnifi;
59. Qissa va povest masalasi;
60. Hikoya va novella masalasi;
61. Esse va badia xos nazariy jihatlar;
62. Badiiy asarda konflikt;
63. Lirik turga xos xususiyatlar;
64. Kichik lirik janrlar;
65. Lirik qahramon ruhiyati;
66. Dramatik tur tabiati;
67. Drama janri tavsifi;
68. Tragediya janri tarixi;
69. Komediya xususiyatlar;
70. Tragikkomediya tabiati;

71. Satira va yumorning asosiy nazariy belgilari ;
72. Ijodiy metod masalasi ;
73. Ijodiy uslub muammosi;
74. Romantizm metodi tavsifi;
75. Realizm metodi tavsifi;
76. Setimentalizm;
77. Simvolizm;
78. Formalizm;
79. Modernizm;
80. Strukturalizm;
81. Postmodernizm;
82. Adabiyotshunoslikdagi metodlar;
83. Adabiy aloqalar va adabiy ta'sir masalasi;
84. Adabiy jarayon va kitobxon ruhiyati.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

85. amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik;
86. seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik;
87. darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
88. tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismini o'zlashtirish;
89. maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
90. talabani o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fan bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish;
91. faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari.

Mustaqil ish uchun quyidagi topshiriqlarni bajarish tavsiya qilinadi:

“Adabiyotshunoslikka kirish” qismi bo'yicha mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Aristotelning «Poetika» asarini o'qib o'rganish.

2. Forobiyning «She'r san'ati» asarini o'qib o'rganish.
3. Alisher Navoiyning «Majolis un nafois» asarini o'qib o'rganish.
4. Alisher Navoiyning «Mezon ul avzon» asarini o'qib o'rganish.
5. Alisher Navoiyning «Muhokamat ul lug'atayn» asarini o'qib o'rganish. 6. Boburning «Muxtasar» asarini o'qib o'rganish.
7. Fitratning «Adabiyot qoidalari», «Aruz haqida» asarlarini o'qib o'rganish.
8. P.Shellining "Peziya himoyasi" traktatini o'qib o'rganish
9. H.Boltaboev, M.Mahmudovning "Adabiy-estetik tafakkur tarixi" kitobini o'qib o'rganish
10. U.Normatovning "Qodiriy mo'jizasi" kitobini o'qib o'rganish
11. I.G'afurovning "Mangu latofat" kitobini o'qib o'rganish
12. YO.Ishoqovning "So'z san'ati so'zligi" kitobini o'qib o'rganish
13. O.Sharafiddinovning "Dovondagi o'ylar" kitobini o'qib o'rganish
14. "Sharq mumtoz poetikasi: manba va talqinlar" o'quv qo'llanmasini o'qib o'rganish

"Adabiyot nazariyasi" qismi bo'yicha mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik.
2. Seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik.
3. Sharq adabiyotshunosligining o'ziga xos qirralari.
4. G'arb adabiy-nazariy tafakkuri tarixiga oid manbalarni o'qish.
5. Badiiylik mezonlari.
6. Obrazli tafakkur tabiati
7. Ijtimoiy g'oya va badiiy g'oya o'rtasidagi umumiylik
8. Ijodkor shaxsiyati va ijodiy induviduallik masalasi
9. Badiiy ijod psixologiyasi
10. Postmodernizm va intertekstuallik

Izoh: Tavsiya qilingan mazkur mavzulardan mustaqil ta'lim uchun uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda foydalanish mumkin.

3. V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

	<ul style="list-style-type: none"> • “Adabiyotshunoslik nazariyasi (Adabiyotshunoslikka kirish)” fani dasturi Davlat ta’lim standartlari, namunaviy dasturlarga qo’yiladigan ilmiy-metodik talablar asosida shakllantirilgan. “Adabiyotshunoslik nazariyasi (Adabiyotshunoslikka kirish)” fani bo’yicha bakalavr talaba adabiyotshunoslik predmeti va adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari, adabiyotshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi, adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi va adabiy tanqid, adabiy turlar va adabiy janrlar, ijodiy uslublar va ijodiy yo’nalish, oqimlar, badiiy adabiyotning o’ziga xosligi haqida tasavvurga ega bo’lishi kerak. • Ushbu fan yuzasidan bakalavr talaba lirik, epik, dramatik janrlar, she’r tuzilishi, san’atning paydo bo’lishi haqidagi nazariyalarni, poetik tafakkurning o’ziga xos xususiyatlari, badiiy obraz turlari, badiiy tasvir vositalari, lafziy va ma’naviy san’atlarni bilishi va ulardan foydalana olishi lozim. • “Adabiyotshunoslik nazariyasi (Adabiyotshunoslikka kirish)” fanidan talaba adabiy asarlarning janrini farqlay olish, adabiy matnni asl manbasi bilan solishtira bilish, asar syujetini tarkibiy qismlarga ajratish, matndagi muallif va qahramon nutqini farqlash, badiiy asarni nazariy jihatdan tahlil qila bilish ko’nikmalariga ega bo’lishi kerak.
<p>4.</p>	<p>VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • “Adabiyotshunoslik nazariyasi (Adabiyotshunoslikka kirish)” fanini o’zlashtirishda o’qitishning ilg’or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. <p>Dasturda ko’rsatilgan mavzular ma’ruza, amaliy mashg’ulot, seminar mashg’ulotlari shaklida olib boriladi.</p> <p>Shuningdek, fanning dolzarb masalalari talabalarga mustaqil ta’lim sifatida o’zlashtirish uchun beriladi.</p> <p>Fanni o’zlashtirishda darslik, o’quv va uslubiy qo’llanmalar, ma’ruza matnlari, tarqatma materiallar, texnik vositalardan foydalaniladi.</p> <p>Ma’ruza, amaliy va seminar mashg’ulotlari zamonaviy pedagogik texnologiyaning ilg’or metodlari orqali hamda slaydlar, multimedia namoyishlari bilan o’tkaziladi.</p>
<p>5.</p>	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to’la o’zlashtirish, tahlil natijalarini to’g’ri aks ettira olish, o’rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish,</p>

yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

Asosiy adabiyotlar

6. 1. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. - T.: O'zbekiston, 2000.
2. Ulug'ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. T. : G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matba ijodiy uyi. 2018.
3. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2018

Qo'shimcha adabiyotlar

4. Boltaboev H., Mahmudov M. Adabiy-estetik tafakkur tarixi. 1-2 jild. T.: "Mumtoz so'z", 2013, 2016.
5. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. – T.: Sharq, 1999
6. Ishoqov Yo. So'z san'ati so'zligi. – T.: O'zbekiston, 2014.
7. Jahon adiblari adabiyot haqida. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2010.
8. Karimov B. Abdulla Qodiriy va germenevtik tafakkur. – T.: "Akademnashr". 2014.
9. Normatov U. Ijod sehri. T.: "Sharq", 2007.
10. Quronov D., Rahmonov B. G'arb adabiy-tanqidiy tafakkuri tarixi ocherklari. – Toshkent: Fan, 2008.
11. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – T.: Sharq, 2004.
12. Sharq mumtoz poetikasi (H.Boltaboev talqinida). – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2008.
13. Ulug'ov A. Asl asarlar sehri. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi. 2007.
14. Ulug'ov A. Qalb qandili – T.: Akademnashr, 2013.
15. Valixo'jaev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi.-T.: «O'zbekiston»,1993.
16. Xalizev V.E. Teoriya literaturi. Uchebnik. – M.: Visshaya shkola, 1999.
17. Qo'shjonov M. Tanlangan asarlar. – T.: Sharq NMAK, 2018

Axborot manbaalari

1. www.litera.ru.
2. www.literature.uz
3. www.ziyonet.uz
4. www.natlib.uz
5. www.ziyouz.com
6. www.turonlib.uz

	<p>Fan dasturi Oliy va professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 202__ yil " __ " __ dagi __ -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 202__ yil " __ " __ dagi __ -sonli buyrug'i bilan ma'qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta'lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.</p>
<p>8.</p>	<p>Fan/modul uchun mas'ullar:</p> <p>B.Karimov – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti adabiyot nazariyasi va zamonaviy adabiy jarayon kafedراسi mudiri, filologiya fanlari doktori, professor</p> <p>A.Ulug'ov – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti adabiyot nazariyasi va zamonaviy adabiy jarayon kafedراسi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi</p> <p>Z.Suvonov - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti adabiyot nazariyasi va zamonaviy adabiy jarayon kafedراسi o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori</p>
<p>9.</p>	<p>Taqrizchilar:</p> <p>I.Yoqubov - Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti professori, filologiya fanlari doktori (turdosh OTM)</p> <p>A.Dehqonov - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek adabiyoti tarixi va folklor kafedراسi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.</p>